

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MUHAMMADIYEVA DILAFRUZ AXTAMOVNA**

**“BOBURNOMA” MATNI O‘ZBEKCHA-TURKCHA-QOZOQCHA  
PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK VA TARJIMASHUNOSLIK  
ASOSLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctoral (DSc) on  
Philological Sciencs**

**Muhammadiyeva Dilafruz Axtamovna**

Boburnoma” matni o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining lingvistik va tarjimashunoslik asoslari ..... 3

**Мухаммадиева Дилафруз Ахтамовна**

Лингвистические и переводоведческие основы узбекско-турецко-казахского параллельного корпуса текста «Бабурнаме» ..... 31

**Mukhammadieva Dilafruz Akhtamovna**

Linguistic and Translation Principles Underlying the Uzbek-Turkish-Kazakh Parallel Corpus of the “Baburnama” Text..... 65

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 70

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MUHAMMADIYEVA DILAFRUZ AXTAMOVNA**

**“BOBURNOMA” MATNI O‘ZBEKCHA-TURKCHA-QOZOQCHA  
PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK VA TARJIMASHUNOSLIK  
ASOSLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Fil580 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Xolmanova Zulxumor Turdiyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sobirov Abdulhay Shukurovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Omonov Qudratilla Sharipovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**O'rinbayeva Dilbar Bazarbayevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**





**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-fevral soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 15-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 15-fevraldagi 01-sonli reyestr bayonnomasi)

  
  
  
  
**Sirojiddin Shuhrat Samariddinovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
akademik  
**Pardayev Qo'ldosh Uzoqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
konferensiyalari f.d., professor  
**Normurodova Nozliya Zarilovna**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida qiyosiy va chog‘ishtirma aspektda olib borilayotgan tadqiqotlar matnlarni elektronlashtirish, milliy va parallel korpuslarning keng imkoniyatlari hamda tezkor qidiruv ta‘minoti asosida takomillashib bormoqda. Matnlarning parallel korpusiga oid ma‘lumotlar bazasi avtomatik tarjimani ta‘minlash bilan bir qatorda, tarjimashunoslik taraqqiyoti, o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillari, yo‘nalishlarini belgilashda, tarixiy-ilmiy matnlarni tushunish va o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud parallel korpuslarning aksariyati leksik sathga doir ma‘lumotlar bazasiga asoslangan, matnlar asosidagi tarjima dasturlari ko‘p emas. Bu holat dunyo miqyosida e‘tirof etilgan qomusiy manbalarning sanoqli ekanligi, matnlar tarjimasiga asoslangan parallel korpus tizimlarining murakkabligi, maxsus lingvistik bazani shakllantirish mezonlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Dunyo tilshunosligida qiyosiy tilshunoslik masalalari diaxron va sinxron yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Tarixiy-badiiy matnlar tarjimasi, manba tili va tarjima tili o‘rtasidagi mutanosiblik, muqobil leksika, realiya, lakuna, milliy qadriyat, urf-odat, an‘analarning to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tarjimasiga erishish, ayniqsa, mazmunning mantiqiy mosligi masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Dunyo madaniyatida keng miqyosdagi ijtimoiy-madaniy muhit til manzarasini qamrab olgan, qomusiy ma‘lumotlar jamlanmasi, voqelik muallif aql-idroki, tafakkur qobiliyati orqali to‘laqonli va ta‘sirchan aks ettirilgan “Boburnoma”dek memuar asar kam uchraydi. Xorij boburshunosligining bir tarmog‘i asar tarjimalari bilan bog‘liq. “Boburnoma” tadqiqini yangi texnologiyalar va innovatsion axborot vositalari zaminida takomillashtirish, avtomatik tarjimaga asoslangan parallel korpuslarni yaratish orqali asarning turkiy tillarga xos madaniy kontekstlardagi talqinini takomillashtirish va sifatli tarjimalarni amalga oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratish bosqichida mamlakatimizda buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish, tafakkur mahsullarini keng yoyish va ommalashtirish dolzarblilik kasb etmoqda. Ulug‘ mutafakkirlar ijodi turli yo‘nalishlar va innovatsion yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan e‘lon qilingan Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlashga qaratilgan Qarorda “Bobur Mirzo hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarning o‘zbek tilidan xorijiy tillarga hamda xorijiy tillardan o‘zbek tiliga bosqichma-bosqich tarjima qilinishi va chop etilishini ta‘minlash” vazifasi belgilangan<sup>1</sup>. “Boburnoma” adib hayoti va faoliyati, shoh, sarkarda, shoir surati, siyrati aks etgan birlamchi va eng mukammal manbadir. Mazkur asarni tarjima qilish, mavjud tarjimalarini takomillashtirish, uning avtomatik tarjimaga asoslangan parallel korpusini yaratish biografik asarlarning yuzaga kelishiga, buyuk mutafakkir ijodiy merosini keng yoyishga zamin yaratadi. “Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik va tarjima asoslarini yaratish turkiy xalqlar o‘rtasida til va madaniyat

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-20-son Qarori / [https:// lex.uz](https://lex.uz).

mushtarakligi, leksik sath hamda lug‘aviy qatlam taraqqiyoti bilan bog‘liq farqli belgilar, tarixiy-badiiy matn mazmunini aks ettirish darajasini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qoshimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Angliya (Cambridge Universities), Amsterdam (Netherland), Amerika (Harvard, Ohio Universities), Germaniya (Humboldt University), Hindiston (Jawaharlal Nehru University), Yaponiya (Kyoto University), Budapesht, Vengriya (Eötvös Loránd University), Misr (Ain Shams University), Rossiya (Институт востоковедения РАН), Turkiya (Cumhuriyet, Kocaeli Üniversitesi, Süleyman Demirel Üniversitesi, Ankara Üniversitesi), Ozarbayjon (Azerbaycan Milli Ilimler Akademisi, Baki Dövlət Universiteti), Al-Forobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy universiteti, Turkmaniston Fanlar akademiyasi Milliy qo‘lyozmalari instituti (Turkmaniston), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), Jalolobod davlat universiteti (Qirg‘iziston), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zbekiston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (O‘zbekiston)da tadqiqot olib borilmoqda.

“Boburnoma”ning tarjimalari, qolyozma nusxalari, tanqidiy matni, tarixiy voqelikni badiiy tasvirlarda aks ettirish xususiyatlari, ilmiy-adabiy qimmatini kabi masalalar yuzasidan jahonda olib borilgan tadqiqotlar doirasida quyidagi ilmiy natijalar olingan. Jumladan, “Boburnoma” asarining qo‘lyozma nusxalari hamda ular asosida tayyorlangan tarjimalarning tarixiy va badiiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan (Oxford, Cambridge University); “Boburnoma” jahon ilm-fanining nodir manbasi ekanligi ilmiy va nazariy jihatdan asoslangan (Japan, Kyoto University);

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi (sayt havolalari): <https://www.kyoto-u.ac.jp/en> // <https://www.ox.ac.uk/> // <https://www.london.ac.uk/> // <https://www.universityofcalifornia.edu> // <https://www.ubc.ca> // <https://www.ras.ru> // <https://msu.ru> // <https://www.cumhuriyet.edu.tr/> // <https://www.istanbul.edu.tr> // <https://www.ankara.edu.tr/> // <https://www.kocaeli.edu.tr/> // <https://science.gov.az> // <https://literature.az> // <http://bsu.edu.az/> // <https://www.kaznu.kz/RU/> // <https://demgi.gov.tm/> // <https://www.hgu.tj> // <https://jagu.edu.kg> //

Bobur va boburiylarning jahon ilm-fani, adabiyoti, madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni belgilangan, jahon adabiyotshunosligida tarixiylik va badiiy talqin masalasi, Boburning o‘ziga xos tasvirlash uslubi aniqlangan (Jawaharlal Nehru University); adib asarlari nusxalarining qiyosiy tahlili keltirilib, jahon tarixi uchun muhim manba ekanligi isbotlangan (Cumhuriyet, Kocaeli Üniversitesi); “Boburnoma”ning tarjimalari, uning o‘ziga xos xususiyatlari, asardagi tarixiy shaxslar tasviri va talqini masalasi nazariy jihatdan isbotlangan (Azerbaycan Milli Ilimler Akademisi, Baki Dövlət Universiteti); Boburning ijodiy faoliyati va “Boburnoma” bo‘yicha dunyo mamlakatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bibliografiyasi tuzilgan (Институт востоковедения РАН); “Boburnoma”, “Bobur devoni”, “Mubayyin” hamda “Risolayi volidiyya” asarlarining til xususiyatlari haqida ilmiy nazariy xulosalar ishlab chiqilgan (Istanbul universiteti); “Boburnoma”ning tarjimalari, o‘zbek tilining milliy-madaniy qadriyatlarini saqlab qolish xususiyatlari, badiiy adabiyotlar tarjimasini muammolari tahlil etilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti), “Boburnoma” leksikasining tarixiy-etimologik asoslari, qomusiy tabiati, asar matnidagi frazemalar, paremiologik birliklarning tarixiy-badiiy funksiyasi ko‘rsatib berilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti).

Dunyo adabiyotshunosligida boburshunoslik yo‘nalishida yaratilgan tadqiqotlar, jumladan, adib asarlarining tarixiy ahamiyati, qo‘lyozma va tarjimalari, ularning tahlili va tavsifiga doir ilmiy-nazariy muammolar bo‘yicha tarjima asarlarining adekvatlik darajasini ta‘minlash; noadekvat tarjima sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish; qo‘lyozma matni, tarjimalarning o‘ziga xos xususiyatlari, leksik birliklarning tarjima tilida berilishini qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qilish; tarjimada kognitiv yondashuv, adekvatlikka erishishdagi to‘siqlarni bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqish; milliy-madaniy so‘zlarning tarjima lug‘atlarini yaratish, shuningdek, “Boburnoma”ni fanlar kesimida tadqiq etish, asardagi tarixiy shaxslar va milliy xususiyatlar talqini masalalari, she‘riyatda janr, uslub, badiiyat va boshqa yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** “Boburnoma” haqida dastlabki tadqiqotlar asarning yaratilgan davridayoq paydo bo‘lgan, bu haqda turli tarixiy manbalarda ma‘lumotlar uchraydi. Asar Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng miqyosda tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

Turkiyshunoslikda “Boburnoma” leksikasining asosiy xususiyatlari tahlil etilgan. M.Turgut “Boburnoma”dagi ovchilik va hayvon nomlarini o‘rgandi<sup>4</sup>. Murad Yurdako‘k “Boburnoma”dagi tibbiy bilimlarga bag‘ishlangan tadqiqotida asarning qomusiy bilim

<sup>3</sup> Beveridge, A.S. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p.; Благова, Г.Ф. Характеристика грамматического строя (морфологии) староузбекского литературного языка конца XVв по «Бабур-наме»: Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 1954.; Благова Г.Ф. К истории изучения «Бабур-наме» в России. Тюркологический сб. к шестидесятилетию А.Н.Кононова, М.: «Наука». – 1966, с.171.; Самойлович А.Н. Новый перевод записок Бабура. Серия литература и языка: Известия Академии наук. Том 53. –№ 1, Р 223. – М.: Наука: 1994. – С. 72–84.; Самойлович А.Н. Новый перевод записок Бабура. Серия литература и языка: Известия Академии наук. Том 53. –№ 1, Р 223. – М.: Наука: 1994. – С. 72–84.; Eiji Mano. Zahir al-din Muhammad Babur. Bābur-nāma (Vaqāyi ). Critical edition based on four Changhatay texts wit introduction and notes Kyoto, Syokado, 1995.; Shimmel A. The empire of the great mughals. – London., 2004. 351p.; «Туркестанские ведомости», 1995.; Самойлович А.Н. Новый перевод записок Бабура. Серия литература и языка: Известия Академии наук. Том 53. –№ 1, Р 223. – М.: Наука: 1994. – С. 72–84.

<sup>4</sup>Хайитов Ш. Бобур и жодининг хорижда ўрганилиши (ўзбекча-туркча манбалар қиёсий таҳлили). Филол. фан.б.фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – Б .75.

manbasi ekanligini asoslab berdi<sup>5</sup>. A. Q. Tangsiqbay “Boburnoma”dagi toponimlar va asarning fonetik xususiyatlari, N. Y. Usenova, I. A. Jemeney, Ю. Piltanlar tarixiy shaxslar, M. Qojanuli etnografik ma’lumotlar, A. A. Daniyar, Q. K. Kenjalinar gap va matn qurishning o’ziga xos jihatlari haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan<sup>6</sup>.

“Boburnoma” va tarjimalarining til xususiyatlari, milliy mentalitetga xos leksik birliklarni qiyosiy tahlil qilishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan. N.Otajonov, S.Shukurullayeva, M. Sobirov, Z.Teshaboyeva, D. Hoshimovalar<sup>7</sup> “Boburnoma”ning inglizcha, G‘.Xodjaye<sup>8</sup> nemischa, L.Xodjaye<sup>9</sup> ruscha, A. Ibrohimov<sup>10</sup> hindcha, M.Sharaxmedova<sup>11</sup> urducha tarjimalari yuzasidan izlanish olib borishgan. M.Xolbekov o‘zbek-fransuz adabiy aloqalarini “Boburnoma” matni asosida tahlil qilgan<sup>12</sup>. G‘.Salomov, N.Otajonovlar memuarining tarjimashunoslikdagi ahamiyatini yoritishgan<sup>13</sup>. F.Salimova tarjimashunoslikda lug‘at masalasi hamda asarning fransuzcha tarjimasini tadqiq qilgan<sup>14</sup>. R.Karimov tomonidan “Boburnoma”dagi she’riy tarjimalar muammosi o‘rganilgan<sup>15</sup>. Z.Xolmanova izlanishlarida “Boburnoma”ning leksik va qomusiy xususiyatlari,<sup>16</sup> Sh.Hayitov tadqiqotida “Boburnoma”ning turkiy tillarda o‘rganilish masalalari tadqiq etilgan<sup>17</sup>.

<sup>5</sup> Yurdako‘k M. Boburshoh asarlarida tibbiyotga oid qarashlar. –Antalya, 2010. – 417 b.

<sup>6</sup> Таңсықбай Ә.Қ. “Бабырнама” топонимикалық дереккөз ретінде. URI: <http://rep.enu.kz/handle/enu/2343>

Дата: 2022.; Таңсықбай Ә.Қ. “Бабырнамада” туыстық атаулардың берілуі . Ш. Уәлиханов атындағы КУ хабаршысы. Филология сериясы. №4 2023.ISSN 2788-7979 (online). <https://doi.org/10.59102/kufil/2023/iss4pp60-69>; Усенова Н.Е., Жеменей И.А., Пилтан Ю. Портрет исторических лиц в “Бабурнаме”. Керуен: Том 86 – № 1 (2025): Керуен. <https://orcid.org/0000-0003-2349-8166>; Қожанұлы М. “Бабырнама” ескерткішіндегі кейбір этнографиялық этюдтер. Научный журнал “Вестник Актыюбинского регионального университета имени К. Жубанова”. 80(2), 219–230; Данияр Ә.А., Кенжалин Қ.К. “Бабырнама” жазба мұрасындағы мәтін байласымы. Bulletin of the Karaganda university. Philology series. 2024, 29, 4(116). – В. 67–78. <https://doi.org/10.31489/2024ph4/67-78> ; Данияр Ә. А., Кенжалин Қ. К., Ахметова М. К. Мәдени және саяси дискурстың “Бабырнама” мәтніндегі көрінісі. Tiltanym No1 (97) 2025. <https://doi.org/10.55491/2411-6076-2025-1-186-196https://doi.org/10.70239/arsu.2025.t80.n2.26>

<sup>7</sup> Отажонов Н. Бадиий таржима ва илмий шарҳ. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1978; шу муаллиф. “Бобурнома” жаҳон адабий жараёнида. Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1994; Шукруллаева С. Воссоздание художественного своеобразия «Бабурнаме» в его английских переводах. Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1989; Собиров М. “Бобурнома”нинг инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадииятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эрскин, Бевериж ва Текстон таржималарининг қиёсий таҳлили асосида). Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2002; Тешабоева З. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан.б.фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2017; шу муаллиф: “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2021; Хошимова Д. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан. д-ри (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2018.

<sup>8</sup> Ходжаев Г. Воссоздание художественно-стилистического своеобразия произведений узбекской литературы в переводе на немецкий язык. Автореф...дисс канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.

<sup>9</sup> Ходжаева Л. Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бабурнаме». Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Андижан, 1985.

<sup>10</sup> Иброҳимов А. “Бобурнома”даги хиндча сўзлар тадқиқи. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2001.

<sup>11</sup> Шарахметова М.А. “Бобурнома”нинг урдуча таржимасида муаллиф услубига хос лексик-семантик хусусиятларнинг акс этиши. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2021.

<sup>12</sup> Холбеков М. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Автореф...дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1991.

<sup>13</sup> Саломов Г., Отажонов Н. Жаҳонгашта Бобурнома. – Тошкент, 1996.

<sup>14</sup> Салимова Ф. Лексикографические и текстологические характеристики Восточно-тюркского словаря Паве де Куртейля и переводов «Бабурнаме». ...дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1997.

<sup>15</sup> Каримов Р. “Бобурнома”даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003.

<sup>16</sup> Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009.

<sup>17</sup> Хайитов Ш. Бобур ижодининг хорижда ўрганилиши (ўзбекча-туркча манбалар қиёсий таҳлили). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 75.

Qayd etilgan tadqiqotlarda “Boburnoma” tarjimalari muayyan filologik maqsad va muammo nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan bo‘lib, asarning mazmuni, muayyan parchaning ma‘nosi chet tilida qanday aks ettirilgani ilmiy jihatdan o‘rganilgan. “Boburnoma”ning turkcha va qozoqcha tarjimalari shu paytga qadar qiyosan o‘rganilmagan, turkiy tillar parallel korpusining ma‘lumotlar bazasi sifatida tadqiqot obyekti qilib olinmagan, asliyat matnining tarjima matnda to‘liq ifodalanishi, axborot-kompyuter uslubiga moslashtirilishi, tabdil va tarjima muammolari jihatidan maxsus fundamental tadqiqot olib borilmagan.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi borasidagi tadqiqotlar miqdori ortdi. Korpus lingvistikasining nazariy asoslari B. Zaxarov, K. Boyarskiy<sup>18</sup>, o‘zbek tilshunoslaridan A. Po‘latov, S. Muhamedova, B. Mengliyev, Z. Xolmanova, D. O‘rinboyeva ishlarida tavsiflangan<sup>19</sup>. Sh. Hamrayeva, N. Abdurahmonova, M. Abjalova, A. Eshmo‘minov, D. Axmedova, R. Karimov, N. Atabayev, A. Begmatova, O. Xidirov, G. Begmatova, O. Xoliyorov, Sh. Gulyamova izlanishlarida o‘zbek tili mualliflik korpusi, o‘zbek-ingliz tili mashina tarjimasi, til korpusi lingvistik bazasini tuzish tamoyillari, o‘zbek tili atov birliklarini semantik teglashning lingvistik asoslari, ingliz tili korpuslari tahlili, ingliz-o‘zbek parallel korpusini tuzishning nazariy asoslari, o‘zbek tili korpuslarini tuzish dasturlari, elektron korpuslarning kompyuter modellari, o‘zbek tili korpusining idiomalar bazasi, o‘zbek tili morfologik, semantik analizatorining lingvistik ta‘minoti, o‘zbek tilining milliy va ta‘limiy korpusini yaratish muammolari tadqiq etilgan<sup>20</sup>. Korpus lingvistikasi, parallel korpus yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlarda<sup>21</sup> lingvistik baza yaratish tamoyillari tavsiflangan.

<sup>18</sup> Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – СПб., 2005. – 48 с; Боярский К. Введение в компьютерную лингвистику. – СПб., 2013.

<sup>19</sup> Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2008; Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2011; Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. Mengliyev B. O‘zbek tilini matematik modellashirishning nazariy va amaliy asoslari. – Filologiya masalalari. – Toshkent, 2018. – №2. Mengliyev B., Hamroyeva Sh. O‘zbek tilining milliy korpusi. – Toshkent: Muharrir, 2023; shu mualliflar: Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish. – Toshkent: Globe Edit, 2020.

<sup>20</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Қарши, 2018; шу муаллиф: Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Филол. фан. д-ри (DSc)...дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 76 б.; Абдурахмонова Н. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (Содда гаплар мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. афтореф. – Тошкент, 2018. – 52 б.; шу муаллиф. Электрон корпусларнинг компьютер моделлари. Филол. фан. д-ри. (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни тахрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар тахрири дастури учун). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)...дисс. – Фарғона, 2019. – 164 б.; Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол.фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Қарши, 2019. – 140 б.; Ахмедова Д. Б. Атов birlikларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)...дисс. – Бухоро, 2020. – 247 б.; Атабаев Н. Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (СОСА мисолида). Филол. фан. б.фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 58 б.; Бегматова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишдаги компьютер усуллари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 24 б.; Хидиров О. Миллий корпус учун парсинг дастури яратишнинг лингвистик асослари. Филол. фан.б. фалс. док.(PhD)...дисс.автореф. – Жиззах, 2021. – 55 б.; Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 48 б.; Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Термиз, 2021; Гулямова Ш. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари. Филол. фан. д-ри. (PhD)...дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 76 б.

<sup>21</sup> Karimov R.A., Mengliev B.R. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019. – P. 388–391; Karimov R., Mengliev B. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus / Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. – VOL 7, ISSUE 17, 2020. – P. 73–76; Каримов Р. Ўзбек-

Tadqiqotlarda Tarixiy-badiiy matn tarjimasi uchun mo'ljallangan parallel korpusning lingvistik va tarjima asoslarini yaratish masalasi monografik tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Turkiy tillarning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** "Boburnoma" o'zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining lingvistik asoslarini yaratishda asar nashrlari, tarjima matnlarini tizimlashtirish, memuar mazmunini turk, qozoq tillaridagi matnlarda to'liq aks ettirish omillari va tarjima tamoyillarini belgilash, muammolarni aniqlash, bartaraf etish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"Boburnoma" matni, tabdili, turkcha hamda qozoqcha tarjimalarini lingvistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan qiyosiy o'rganish;

ilmiy-tanqidiy matn va tarjimalarning parallel korpus lingvistik asoslarini yaratishdagi ahamiyatini ochib berish, muammolarni aniqlash, bartaraf etish usullarini ishlab chiqish;

boburshunoslikdagi "Boburnoma" matni o'zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining o'zbek tarjimashunosligi, shuningdek, turkologiyadagi o'rni va ahamiyatini asoslash;

"Boburnoma"ning o'zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratishning lingvistik asoslarini belgilash;

"Boburnoma" matni o'zbekcha-turkcha-qozoqcha tarjima lug'atini yaratish tamoyillarini belgilash va ilmiy asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** "Boburnoma"ning o'zbek, turk va qozoq tillari tarjima prizmasida ko'rib chiqiladigan turli nashrlar<sup>22</sup>, tarjimalar<sup>23</sup> hamda ularning raqamli formatdagi lingvistik talqinlarini qamrab oluvchi parallel diskursiv-matn asoslaridan iborat.

**Tadqiqotning predmetini** "Boburnoma" matnining turk va qozoq tillaridagi tarjimada to'liq aks etish darajasini tahlil qilish, matn mosligi, o'zaro muvofiqlashtirish va annotatsiyalashning lingvistik va tarjima tamoyillari, usullari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, statistik metod, modellashtirish, komponent, konseptual tahlil metodlari, ilmiy tavsiflash, tasniflash, tizimli tahlil va talqin etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"Boburnoma" turk, qozoq tillaridagi tarjimalarining qiyosiy-konseptual tahlili natijasida tarjimalar bilan bog'liq leksik, grammatik, sintaktik transformatsiyalarga oid muammolar ochib berilgan, shu asosda boburshunoslikda matn tarjimasi tahliliga doir

---

инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Бухоро, 2022; Musurmankulova Sh. O'zbekcha va turkcha frazemalar korpusining lingvistik ta'minoti. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 24 b.

<sup>22</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Хасанов. – Тошкент, 2002.

<sup>23</sup> Babür Z. M. Vekayi. Babür'un Hatıratı. – Ankara, 1987; Бабыр Зәһиреддин Мұхаммед. Бабырнама. Түркі тілінен қазақшаға аударған және алғы сөз, түсініктер жазған Ислам Жеменей. – Алматы: Нұрлы Әлем, 2022.

masalalar yechimi yuzasidan ilmiy-nazariy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqilgan va ilmiy dalillangan;

“Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik bazasini yaratish orqali uch tildagi matnning semantik-uslubiy moslik darajasi va uslubiy siljishlar, tarjima muvofiqligi va ekvivalentlik darajasini belgilash, leksik-semantik farqlari korpus lingvistikasiga xos metodlar asosida ilmiy jihatdan asoslanib, ular bo‘yicha ilmiy tasnif ishlab chiqilgan;

“Boburnoma”ning o‘zbek va qardosh tillardagi lug‘atlari lingvistik xususiyatlarini talqin qilish orqali badiiy asar asosida tarjima lug‘ati yaratish zarurati mavjudligi, bunday lug‘atning tarjimashunoslik uchun tarjima tizimlarini yaratish, tilni o‘rganish, lingvistik tadqiqotlar olib borish va matnlarni avtomatik tahlil qilishdagi o‘rni ochib berilgan;

badiiy asar asosida elektron tarjima lug‘ati lingvistik bazasini yaratish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal etishda kontekstga asoslanish, tarjimaga oid takliflarni ayni so‘zga teglash orqali birlashtirish kabi mezonlar taklif qilingan, shu mezonlar asosida “Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha talqini konsepsiyasi ilgari surilgan;

uch til o‘rtasidagi semantik ekvivalentlarning dinamik xaritasini yaratish va tarixiy matnlar tarjimasida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan universal terminologik bazani shakllantirish maqsadida tarixiy-leksik birliklarining interaktiv, parallel korpusga tayangan tarjima lug‘ati modeli taklif qilingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha matnlari lingvistik jihatdan tahlil etilgan hamda mukammal ilmiy-tanqidiy nashrlarini tayyorlashda zarur bo‘ladigan nazariy asoslar ishlab chiqilgan;

oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi jarayonida talabalarga “Boburnoma”ni o‘qitishda manba sifatida foydalanish mumkin bo‘ladigan metodik ta‘minot yaratilgan;

“Boburnoma” tarjimalarining xususiyatlari, tarjimadagi lug‘aviy birliklar, grammatik tuzilmalarning o‘zbekcha manbalar bilan muvofiqligi haqida ilmiy xulosalar berilgan;

“Boburnoma” asosidagi o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha tarjima lug‘ati tamoyillari yaratilgan, leksikografik tadqiqot sifatidagi keng imkoniyatlari asoslangan;

“Boburnoma” o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi yaratishning lingvistik ta‘minoti ishlab chiqilgan, ma‘lumotlar bazasining tarjimashunoslik, tilshunoslik tadqiqotlari hamda leksikografik izlanishlar uchun boy manba bo‘lishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** xorij va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, ilmiy-nazariy konferensiyalardagi ma‘ruzalar, Bobur asarlarining qo‘lyozma manbalari, tarixiy adabiyotlar, tarjima manbalari, davriy matbuot va birlamchi manbalarga asoslanilgani, olingan natijalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilishi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya materiallardan tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda tarix yo‘nalishidagi amaliy va ilmiy izlanishlarda manba sifatida foydalanilishi, ishda keltirilgan fikr-mulohaza va takliflar “Boburnoma” yuzasidan olib boriladigan izlanishlarda, ayniqsa, xorijda Bobur ijodini o‘rganish, boburshunoslikda o‘zbek va

turkiy millatlar olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot yoʻnalishlarini belgilashda manba boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy materiallardan tarjima nazariyasi va amaliyoti, kompyuter lingvistikasi, tilshunoslik sohalari uchun dasturlar, darslik va oʻquv-qoʻllanmalar tayyorlash, maxsus kurs va seminar mashgʻulotlarini tashkil qilishda material va uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Boburnoma” matnining oʻzbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

“Boburnoma”ning turk, qozoq tillaridagi tarjimalari tahlili amalga oshirilib, qiyoslash orqali har bir tarjimaning yutuq va kamchiliklari koʻrsatilganligi, tarjimalar bilan bogʻliq muammolar ochib berilganligi, boburshunoslikda matn tarjimasini hamda uning badiiy tahliliga oid masalalar yechimi yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalardan 2022–2024-yillarda Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetida bajarilgan 56-0/10 raqamli “Tarixiy yodgorliklar targʻibotida “Oʻzbekiston ziyoratgohlari katalogining (besh tilli) innovatsion imkoniyatlari” doirasida bajarilgan “Oʻzbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari” katalogini tarjima qilish loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston-Fransiya doʻstlik jamiyatining 2025-yil 17-iyundagi 92/1-son maʼlumotnomasi). Natijada loyihaning “Boburnoma”ga doir qismida asarning tarjimalari bilan bogʻliq muammolar bartaraf etilgan va asarni innovatsion usulda taqdim etishga erishilgan;

“Boburnoma”ning oʻzbekcha, turkcha va qozoqcha matnlari hamda tabdilining birinchi marta matniy-qiyosiy tahlil qilinishi orqali asarning ilmiy mukammal nashrini tayyorlashga doir nazariy asoslar va ilmiy-nazariy xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyoti davlat korxonasi tomonidan 2022–2024-yillarda bajarilgan Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari akademik nashrini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyoti davlat korxonasining 2025-yil 18-iyundagi №09/25-son maʼlumotnomasi). Natijada “Boburnoma”ning yangi nashrini tayyorlashda matn aniqligiga erishilgan;

ilk bor badiiy asar asosidagi tarjima lugʻat yaratish tamoyillari ishlab chiqilgani va shu asosda “Boburnoma”ning oʻzbekcha-turkcha-qozoqcha tarjima lugʻatini tuzish konsepsiyasini yaratishga doir nazariy asoslar, har bir asar tarjima matni va tili hamda badiiy tarjimaga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Tarix instituti tomonidan 2022–2024-yillarda bajarilgan FZ-202007287 “Oʻzbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrdan 1991-yilgacha) elektron “aqli kutubxona” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 25-iyuldagi 3/1255-1818-son maʼlumotnomasi). Natijada elektron kutubxona yaratishda elektron lugʻatlarning ahamiyatiga eʼtibor qaratilgan;

“Boburnoma” va uning turk, qozoq tillaridagi tarjimalarining birinchi bor avtomatik tarjima yoʻnalishidagi parallel korpus maʼlumotlar bazasi sifatida tadqiq etilganligi, asar gaplar kesimida boʻlaklarga ajratilib, turk va qozoq tilidagi matnlarni unga moslashtirish orqali badiiy matnni murakkab sintaktik butunliklarga boʻlib tahlil qilishning ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida)

elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 21-iyundagi 05/1-1262-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada korpus ma’lumotlar bazasi mumtoz asarlar tarjimasiga oid materiallar bilan boyitilgan;

“Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratishning tarjimashunoslik va turkologiyadagi ahamiyati, tarjima matnlarni yangi texnologiyalar asosida tahlil qilish imkoniyatlari haqidagi qarashlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” telekanali tomonidan tayyorlanib, efirga uzatilgan Bobur hayoti va ijodiga doir “Mavzu”, “Tarixiy savol”, “Javohir” hamda “Shoh va shoir qismati” nomli turkum ko‘rsatuvlarning ssenariylarini tayyorlashda keng foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 20-dekabrda 06-29-643-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuvlar orqali Bobur hayoti va ijodiga doir shu paytga qadar ma’lum bo‘lmagan yangiliklarni taqdim etishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 33 ta maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, shundan, 10 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat bo‘lib, jami 219 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boburnoma” matni o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik ma’lumotlar bazasining ilmiy-nazariy va lingvistik asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, 4 paragrafdan iborat. 1.1-paragraf *Matn asosidagi parallel korpusning ilmiy-nazariy tavsifi va qiyosiy, chog‘ishtirma, tarjimashunoslik materiallari sifatidagi qiymatiga bag‘ishlangan.*

Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasi hozirda ancha rivojlangan bo‘lib, bugungi kunda faol ishlayotgan korpuslar ko‘p miqdorni tashkil etadi<sup>24</sup>.

<sup>24</sup> <http://www.collins.co.uk/Corpus/CorpusSearch.aspx>, <http://www.natcorp.ox.ac.uk/>, <http://sara.natcorp.ox.ac.uk/>, <http://ruscorpora.ru>, <http://corpora.ids-mannheim.de/~cosmas/http://korpus.juls.savba>, <http://corpus.nytud.hu/mnsz/>, <http://www.corpusdelespanol.org/>, <http://www.corpusdelespanol.org/>, <http://www.rcl.cityu.edu.hk/livac/>, <http://uzschoolcorpara.uz>, <http://ucnk.ff.cuni.cz>, [http://webcorpora.net/TatarCorpus/search/index.php?interface\\_language=ru](http://webcorpora.net/TatarCorpus/search/index.php?interface_language=ru), [http://webcorpora.net/KazakhCorpus/search/?interface\\_language=ru](http://webcorpora.net/KazakhCorpus/search/?interface_language=ru), [http://webcorpora.net/KazakhCorpus/search/?interface\\_language=ru](http://webcorpora.net/KazakhCorpus/search/?interface_language=ru), <https://www.tnc.org.tr>

Parallel korpusning tuzilishi, tarkibi va imkoniyati haqida D.O.Dobrovolskiy, Y.Tao, V.Zaxarov, A.A.Kokoreva, Y.P.Sosninalar tadqiqotlar olib borishgan<sup>25</sup>. Parallel korpuslar qanday maqsadni ko‘zlashidan qat’i nazar tarkibidagi birliklar moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Moslashtirish bitekst dasturi asosida amalga oshiriladi. Bitekstlar “moslashtiruvchi asbob” (alignment tool) yoki “bitekst uchun moslama” (bitext tool) deb nomlanuvchi maxsus kompyuter dasturlari yordamida bajariladi. Bu dasturlar original va tarjima matn mazmunini turli sintaktik birliklar, asosan, sodda gap shaklida moslashtirib beradi. Bitekstlar yig‘indisi bitekst ma’lumotlar bazasi yoki ikki tilli korpus deb nomlanadi hamda turli bog‘lanishlarni kuzatish imkonini beruvchi ma’lumot bazasi (spravochnik) vazifasini o‘taydi”<sup>26</sup>.

O‘zbek tilshunosligida parallel korpus tuzish borasidagi ilk mulohazalar B.Mengliyev, R.Karimov, Sh.Musulmonkulova ishlarida kuzatiladi<sup>27</sup>.

Bugungi kunda mashhur bo‘lgan parallel korpuslardan biri Europarl korpusi – Yevropa parlamentining rasmiy muhokamalaridan olingan matnlardan iborat bo‘lib, unda bir nechta til materiallariga asoslanilgan. TILDE – Turkish Parallel, OPUS – Tatoeba (MultiTurkic) Corpus Bianet Corpus, TED Talks (Turkish subset), OpenSubtitles (Turkish subset), Qur’an Parallel Corpus (Tanzil based), Apertium Turkic Language Resourceslar turkiy tillardagi eng mashhur parallel korpuslardir.

Korpuslarning ma’lum qismi parallel matnlarga asoslangan. Parallel korpuslar avtomatik tarjima, qidiruv tizimiga asoslangan o‘zaro muvofiq matn fragmentlaridan iborat murakkab texnologik tuzilma bo‘lib, tarjima yo‘nalishini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yaxlit matnlar mazmuni va uslubini yoritish, tarixiy-badiiy asarlarni tarjima qilish va ommalashtirishda muhim o‘rin tutadi.

1.2-paragrafda *“Boburnoma” o‘zbekcha nashrlarining asliyat matnini shakllantirishdagi ahamiyati* yoritilgan. O‘zbekistonda “Boburnoma”ning keng kitobxonlar va ilm ahliga taqdim etilishi bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Asarning ilmiy nashrlari ilk bor 1928-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan ayrim parchalar ko‘rinishida chop etilgan. “Boburnoma” birinchi bor P. Shamsiyev va S. Mirzayevlar tomonidan 1948–1949-yillarda ikki qismda to‘liq holda nashr etilgan edi<sup>28</sup>. Oradan biroz vaqt o‘tgach, birinchi nashrdagi ayrim chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida 1960-yilda “Boburnoma”ning dastlabki ilmiy-tanqidiy matni yuzaga keladi. “Boburnoma”ning 1960-yildagi nashri “So‘zboshi”, “Nashr haqida”, “Boburnoma” matni, “Kishi nomlari va geografik ko‘rsatkichlar” hamda “Tarjimalar” qismlaridan iborat<sup>29</sup>.

<sup>25</sup> Zaxarov V., Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish. – Toshkent, 2021. – B. 14.

<sup>26</sup> Жўраева Н. Кўп тилли параллел корпуслар хусусида // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2022. – № 3. – Б. 43.

<sup>27</sup> Karimov R.A., Mengliyev B.R. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019. – P. 388–391; Karimov R., Mengliyev B. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus / Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. – VOL 7, ISSUE 17, 2020. – P. 73–76; Каримов Р. Ўзбек-инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2022; Musurmankulova Sh.G. O‘zbekcha va turkcha frazemalar korpusining lingvistik ta’minoti. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 24 b.

<sup>28</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома. Нашрга тайёрловчилар: П.Шамсиев, С.Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1949.

<sup>29</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 55.

S. Hasanov nashri<sup>30</sup> P.Shamsiyev va S.Mirzayev (1960) hamda E. Mano nashrlari asosida amalga oshirilgan. Kitobdagi ko'rsatkichlar ham P. Shamsiyev va E. Mano nashri asosida tuzilgan bo'lib, kishi, urug', nasl-nasab, kitob va risolalar nomlari, shuningdek, she'rlar, masallar va hikmatli so'zlarni o'z ichiga olgan. S.Hasanov nashrida 5 ta nusxadan foydalanilganligi uchun satr osti izohlar ham avvalgi nashrga qaraganda bir baravar ko'p, ya'ni, 1165 tani tashkil etadi.

“Boburnoma” 2024-yilda B.Yo'ldoshev tomonidan kirill alifbosida nashr etildi<sup>31</sup>. A. A'zam bu nashrni “yangi ilmiy-tanqidiy matn” deb baholadi. Olimning fikricha, ushbu nashrda asarning barcha ma'lum qo'lyozmalari va mavjud ilmiy nashrlariga tayanilgan bo'lib, avvalgi nashrlardagi ko'plab kamchiliklar, ayniqsa, “Boburnoma”ning Hindiston qismida keltirilgan ism va joy nomlarining yozilishi bilan bog'liq xatoliklar tuzatilgan<sup>32</sup>. B. Yo'ldoshev nashrida asarda uchraydigan maqol, forscha she'r va Qur'oni Karimdan keltirilgan oyatlar ham sharhlangan. Bundan tashqari, otdosh tarixiy shaxslar haqida gap ketganda, satr ostida izoh berilgan. Nashrda satr osti izohlarning umumiy miqdori 2587 tani tashkil etadi, shundan 597 tasi so'zlarni, sanalarni yoki biror voqeani aniqlashtirish munosabati bilan keltirilgan.

Har uch nashrni lingvistik tahlil qilish maqsadida yozilishida farq mavjud bo'lgan so'zlar aniqlanib, o'zaro qiyoslandi.

1.1-jadval

### “Boburnoma” nashrlaridagi farqlar

№	Tafovutlar	P. Shamsiyev <sup>33</sup>	S. Hasanov <sup>34</sup>	B. Yo'ldoshev <sup>35</sup>
1	Qo'shimchalar farqi	соқоллик (b.222) <sup>36</sup>	соқоллик (b.128)	соқоллик (b.178)
2	Tovush tarkibi	Қабодён (b.178)	Қабодиён (b.102)	Қабодиён (b.131)
3-a	Qo'shib/ajratib yozish	кийна гузор (b.218)	кийнагузор (b.126)	кийнагузор (b.174)
3-b	Toponimlarni qo'shib/ajratib yozish	Шахрисафо (b.178)	Шахри Сафо (b.102)	шахри сафо (b.131)
4	So'z imlosi	хили (b.93)	хейли (b.53)	хейли (b.43)
5	Forsiy izofaning yozilishi	Дараи Газдин (b.64)	Дарайи Газдин (b.37)	Дарайи Газдин (b.15)

“Boburnoma”ning o'zbek tilidagi nashrlari parallel korpusdagi asliyat matnini shakllantirish manbasi hisoblanib, lingvistik ma'lumotlar bazasini yaratishda tafovutlar, farqli o'rinlar e'tiborga olindi.

Tadqiqotning 1.3-paragrafi “Boburnoma” turkcha nashrining asliyat matn mazmuni va uslubiyatini aks ettirish xususiyatlari deb nomlangan. “Boburnoma” R. R. Arat tomonidan 1943–1946-yillarda turk tilida nashr etilgan. Mazkur tarjima “Vekayi” (Babur'un hatirati)<sup>37</sup> nomi bilan ikki jild shaklida chop etilgan bo'lib, ushbu

<sup>30</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2002.

<sup>31</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Б.Йўлдошев. – Тошкент: Очун, 2024.

<sup>32</sup> Ko'rsatilgan asar. – B. 14.

<sup>33</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчилар: П.Шамсиев, С.Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1960. – B. 55.

<sup>34</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2002.

<sup>35</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Б.Йўлдошев. – Тошкент: Очун, 2024.

<sup>36</sup> Misollar “Boburnoma”ning havolada berilgan nashrlari asosida berildi va qavs ichida sahifasi ko'rsatildi.

<sup>37</sup> Zahireddin Muhammed Babür. Vekayi. Babür'un Hatirati. – Ankara, 1946.

nashr keyinroq 1987-yilda Anqarada, uning yana bir turkcha nusxasi 1993-yilda Istanbulda turk olimi Mas'ud Shen tomonidan nashr etilgan.

R.R.Arat "Boburnoma"ning ilmiy nashrini yaratishda asarning 1857-yilda N.Ilminskiy tomonidan e'lon qilingan Qozon bosmasi (Kerr qo'lyozmasi) hamda 1905-yilda A. Beverij tomonidan nashr qilingan London nashri (Haydarobod qo'lyozmasi)dan foydalangan. R. R. Arat tarjima so'ngida ikki yuz sahifadan ortiq shaxs va geografik nomlar indeks-lug'ati hamda Bobur shajarasi sxemasini aks ettirgan. "Boburnoma" turkcha tarjimasining ahamiyatli jihatlaridan biri – uning 573–669 sahifalarida 401 ta not qayd berilganidir.

"Boburnoma"ning boshqa ilmiy-tanqidiy matnlaridan farqli ravishda turkcha tarjimada keltirilgan har bir shaxs, joy, hayvonot nomlari izohi berilgan. Tarjimon asarda keltirilgan Qur'on oyatlarini tafsiri bilan bergan. Nashrda shaxs nomi, joy va asar ko'rsatkichlari nisbatan to'liq keltirilgan. Masalan, urug' va nasl-nasab nomlari, hayvon va o'simlik nomlari, masal va hikmatli so'zlar, kitob va risolalarning nomlari va izohi berilgan.

1.4-paragraf "*Boburnoma*" qozoqcha nashrlarining asliyat matn mazmuni va uslubiyatini aks ettirish xususiyatlariga bag'ishlangan. "Boburnoma" qozoq tiliga birinchi bor 1990-yilda B. Qojabekuli tomonidan tarjima qilingan. Bu tarjima o'zbekcha tanqidiy matn va ruscha tarjima asosida amalga oshirilgan va qisqartirilgan holda bosilgan. 1993-yilda to'liq tarjima shaklida nashr etilgan, ammo ism ko'rsatkichlari va geografik nomlar xaritasi tushirib qoldirilgan. "Boburnoma"ning qozoq tilidagi keyingi tarjimasi "Tarixi Rashidiy" asari tarjimoni I. Jemeney tomonidan amalga oshirilgan. I.Jemeney e'lon qilgan tarjima "Boburnoma"ning qozoq tilidagi avvalgi tarjimasidan bir necha xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Masalan, B. Qojabekuli tarjimasida voqealar juda kichik-kichik mavzularga bo'lib berilgan. Hikmatli so'zlar va maqollar mazmunga mos tarzda o'g'irilmagan. Yangi tarjima nashrida muallif yuqorida keltirilgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etgan. Tarjimaning har jihatdan pishiq va puxta, samarali chiqishini ta'minlagan.

I. Jemeney "Boburnoma"ning avvalgi tarjimasidagi kamchiliklarni ta'kidlab, kitobning so'zboshi qismida bir necha misollar bilan dalillaydi. Tarjimon asarda qo'llangan so'zlarni turkiy, fors, arab va boshqa tillarga bo'lib o'rgandi. Turkiy so'zlarni esa eski turkiy so'zlar, hozirgi umumiy turkiy so'zlar, turkiylashgan fors-arab so'zlari va ikkinchi darajali so'zlarga guruhlaydi. Fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan olim "Boburnoma"ni asl nusxadan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib, arab, fors va turkiy so'zlar lug'atini o'z ichiga olgan tarjima kitobni taqdim etdi<sup>38</sup>. I. Jemeney tarjimasidagi yondashuv, asar leksikasining o'z va o'zlashgan qatlam tasnifi turkiy so'zlarni arab, fors tilidagi muqobillari bilan izohlashga qaratilgan tahlillar ahamiyatlidir.

Dissertatsiyamizning II bobi "**Boburnoma**" matni o'zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik ma'lumotlar bazasini yaratishda tarjima tamoyillari va muammolari deb nomlanadi va 4 paragrafni o'z ichiga oladi.

2.1-paragrafda "*Boburnoma*" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari o'rganilgan. O'zbek tarjimashunosligining tamal toshini qo'ygan olimlar sifatida

---

<sup>38</sup> Бабыр Зәһиреддин Мұхаммед. Бабырнама. Түркі тілінен қазақшаға аударған және алғы сөз, түсініктер жазған Ислам Жеменей. – Алматы: Нұрлы Әлем, 2022. – Б. 11.

J.Sharipov, N.Vladimirova, G'.Salomov, Q.Musayev, M.Xolbekov, Sh.Sirojiddinov<sup>39</sup>larning ishlarini qayd etish mumkin.

Parallel korpuslar ikki yoki undan ortiq tilda ifodalangan bir xil mazmunga ega lug'aviy birliklar, matnlar to'plami bo'lib, tarjimashunoslik natijalariga asoslanadi. Tarjimashunoslik mazmunning bir til tizimidan boshqasiga o'tkazilish jarayonini tahlil qiladi. Hozirgi tarjimashunoslik nazariyalari korpusga asoslanadi, korpuslar esa tarjima nazariyalarining empirik taqdimotiga xizmat qiladi. Tarjimashunoslikda parallel korpuslar so'nggi yillarda ilmiy izlanishlar uchun muhim metodologik manba sifatida e'tirof etilmoqda. Parallel korpus tuzishning asosiy bosqichida tarjima sifati va uslubiy yondashuvlar belgilovchi ahamiyatga ega. Avvalo, parallel korpusga muvofiq tarjima tamoyillarini aniqlash, shunga ko'ra lingvistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim bo'ladi.

Parallel korpus yaratishda quyidagi tarjima tamoyillariga asoslaniladi<sup>40</sup>:

1. Ekvivalentlik va semantik moslik.
2. Pragmatik adekvatlik.
3. Uslubiy jihatdan moslik.
4. Tarjima interferensiyasi va kalka.

“Boburnoma” matni parallel korpusining lingvistik bazasini shakllantirishda qayd etilgan tamoyillar bilan bir qatorda kontekstual moslik, muvofiqlashtirish tamoyillaridan ham istifoda etildi.

Parallel korpuslarning lingvistik asoslarini yaratish tarjimashunoslikdagi bir qator muammolarni samarali hal qilishda yordam beradi: tarjima xatolarini aniqlash va tizimlashtirish; tarjimon uslubini o'rganish; madaniy tafovutlarni tahlil qilish; avtomatik tarjima sifatini baholash. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, parallel korpus yaratishda qo'llanayotgan tarjima tamoyillari odatdagi tarjima tamoyillaridan maqsadi va vazifasiga ko'ra farq qiladi.

2.2-paragrafda “*Boburnoma*”ning o'zbekcha nashrlari va tabdili bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Tabdil “almashtirish”, “o'girish” ma'nolarini anglatadi. Jahon matnshunosligida tabdilning *transkripsiya* va *transliteratsiya* usullari farqlanadi. Bu usullar tor ma'noda bir yozuvning ikkinchi bir yozuvga aynan o'zgartirilishini ifoda etadi<sup>41</sup>. Tabdil muayyan tilning tarixiy bosqichlaridagi matnni davr tiliga moslashtirishni ham ifoda etadi. “Boburnoma”ning V.Rahmonov hamda K.Mullaxo'jayevalar tomonidan tayyorlangan nashri tor ma'nodagi, ya'ni asar yaratilgan tildan hozirgi tilga moslashtirilgan tabdildir. Ushbu tabdilning amalga oshirilishi boburshunoslikda Boburni xalqqa yaqinlashtirish vazifasini bajarganligi bilan muhim voqea sifatida baholandi. Tabdil mualliflari va muharrirlari boburshunoslik fani qo'lga kiritgan barcha yutuqlar zaminida ish olib borishgan. Masalan, Bobur “uyqulab” so'zini qo'llagan. Ammo bu shakl hozirgi o'zbek tilida bir oz o'zgargan. Bu so'z tabdilda shu shaklda keltirilgan. Mazkur so'zni hozirgi ko'rinishda – “uxlab” shaklida berish lozimligi haqidagi fikrlar

<sup>39</sup> Владимирова Н. В. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Тошкент, 1957; Шарипов Ж. Некоторые проблемы поэтического перевода. – Тошкент, 1958; Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, 1961; Мусаев Қ. Таржиманинг лингвостилистик муаммолари. – Тошкент, 1988; Холбеков М. Ўзбек-француз адабий алоқалари: таржима, танкид ва идрок тадориғида. – Тошкент, 1991; Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2021.

<sup>40</sup> Ushbu tamoyillar tarjimashunoslikdagi tamoyillar asosida ishlab chiqildi.

<sup>41</sup> Abdulxayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. Navoiy asliyati tabdillari. – Toshkent, 2023. – B. 6.

aytilgan<sup>42</sup>. *Uyqulab* shakli asliyat uslubini aks ettiradi, hozirgi o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi bilan bir qatorda, *uxlamoq* leksemasining yasali sh asosini aniqlashga ham xizmat qiladi. Asarning tabdilida *peshkash qilib – tortiq qilib, tasadduq – sadaqa, mulozamat qildilar – xizmat qilish niyatlarini bildirdilar* tarzida tabdil qilingan. *Peshkash, tasadduq, mulozamat* so‘zlarining asliyat mazmuniga xosligi qayd etilib, o‘z holicha qoldirish ma’qullangan<sup>43</sup>. Bu o‘rinda tabdil mualliflari *peshkash, tasadduq, mulozamat* so‘zlarining hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi muqobilini berishda to‘g‘ri yo‘l tutishgan. *Peshkash* hozirgi kunda arxaik birlikka aylangan, *tasadduq, mulozamat* so‘zlari semantik o‘zgarishga uchragan.

“Boburnoma” muvaffaqiyat bilan tabdil qilingan, ammo tabdil matnida ham keyingi nashrlarda tuzatilishi lozim bo‘lgan bir qancha jihatlar mavjud.

...*Men Sulton Saidxong‘a bori navkarlarimni topshurub*”, deb berilgan jumla tabdilda *Men Sulton Saidxonga barcha navkarimni topshirib*” (b.123) deb, ya’ni *bori* so‘zi *barcha* tarzida tabdil qilingan. “Boburnoma”ning 1856- yilgi Qozon nashrida ushbu jumla “boyri navkarlarimni”, deb yozilgan<sup>44</sup>. “Boyri – بايرى” so‘zi eski o‘zbek tilida “sinalgan, ishonchli” ma’nolarida keladi<sup>45</sup>. Ya’ni Bobur ko‘mak uchun barcha navkarini emas, ishonchli navkarlarini yuborgan edi.

Navoiy asarlari tabdilini yaratishda belgilangan tamoyillardan<sup>46</sup> kelib chiqqan holda “Boburnoma” tabdili uchun quyidagilar ustuvor tamoyillar sifatida belgilandi: 1. Asliyat matn mazmunidan kelib chiqib yondashish. 2. Muallif uslubini imkon qadar saqlash. 3. Nom sifatidagi birikmalarni, izofalarni asl shaklida berish. 4. Tabdilda izohlash usulidan unumli foydalanish.

“Boburnoma” nashrlari, turkiy tarjimalari asosida takomillashtirilgan tabdilining qayta nashr etilishi asar matnini ommalashtirish, qomusiy mazmunini keng yoyishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

2.3-paragraf “*Boburnoma*”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar deb nomlangan. “Boburnoma” turkcha tarjimasida uchraydigan muammolar:

*So‘z tarjimasi bilan bog‘liq muammolar*. Tarjima sifatiga ta’sir qiladigan bu muammo quyida misollar yordamida asoslandi.

2.1-jadval

### Turkcha matndagi so‘z tarjimasi bilan bog‘liq muammolar

<i>Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo‘lur, qalin lola va gullar ochilur</i> (b. 3b)	<i>Akar sulari vardır. Baharı çok güzel olur; birçok lüle ve güller açar</i> (s.3b)
<i>...navkarni yaxshi shafqat bila saxlar edi</i> (b. 22b).	<i>Adamlar üç bin kadar olmuştü. Onları iyi ve şık tutardı</i> (s.22b).
<i>Elining orasida husni heyli bordur</i> (b.3a) .	<i>Ahalisi arasında güzeller çok bulunur</i> (s.3a).
<i>Eli tamom sort va forisiygo ydur</i> (b.4a).	<i>Ahalisi tamamen sart ve dağlıdır</i> (s.4a).

<sup>42</sup> То‘xliyev В. “Boburnoma”ning ilk tabdili // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2008. 26 sentabr. – № 39 (3971).

<sup>43</sup> Тешабоева З. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. фан. д-ри (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 128.

<sup>44</sup> Bu haqda qarang: Qozoqov T. G‘aribingga tarahhum aylagilkim, anda jonidur / Ma’rifat. 2-23. – Toshkent, – № 40 (9469). – S. 8.

<sup>45</sup> Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. Тўрт томли. 1-том. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 309.

<sup>46</sup> Abdulxayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. Navoiy asliyati tabdillari.– Toshkent, 2023. – B. 14.

Birinchi gapda o‘zbek tilidagi *gul* so‘zi turk tilida ham *gül* tarzida o‘g‘irilgan. Gap shundaki, turk tilida *gül* so‘zi “atirgul” ma’nosini beradi, “gul” ma’nosida esa *çeçek* so‘zi qo‘llanadi. Ikkinchi gapda *navkarlar* so‘zi *adamlar* deb tarjima qilingan, ammo *adamlar* so‘zi *navkarlar* so‘ziga to‘liq ekvivalent bo‘la olmaydi. Uchinchi gapdagi *husn heyli* birikmasi birinchi so‘zga asoslanib *güzeller* deb tarjima qilingan, ammo bu bilan asl ma’nodan uzoqlashilgan.

*Birikma tarjimasi bilan bog‘liq muammolar.* Birikmalar, yonma-yon kelgan so‘zlar ma’nosini ifodalashda nomuvofiqliklar kuzatildi. *Bir jins anor bo‘lur, “donakalon” derlar, chuchuklugida zardolu mayxushlugidin andak choshni bor* (B.3b). *Dânekelân dedikleri bir cins nar vardır ki, tatlılık ve mayhoşlukta Semnan narlarına (3 b) tercih edilebilir.* Ushbu gapda *chuchuklugida zardolu mayxushlugidin* birikmasi *tatlılık ve mayhoşlukta* tarzida teng bog‘lanishli birikma qilib tarjima qilingan. Shu bilan birgalikda asl matndagi ma’nosiga ham putur yetgan.

*Gap tarjimasi bilan bog‘liq muammolar.* Tarjima jarayonida asl matndagi sodda gaplar ba‘zan qo‘shma gapga aylantirilgan, yoki aksincha, ba‘zan 2–3 ta gap mazmuni olinib, bir sodda gap tarzida ifodalangan. Tarjima nuqtayi nazaridan qaralsa, bu juda katta muammo amas, ammo korpus yaratishda barcha gaplar raqamlanib, bir-biriga moslashtirilishini hisobga olsak, bu holat kontekstual muvofiqlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: *Bu xabar Sulton Mas‘ud mirzog‘a kelgach, Vali Xisravshohkim, bu kechgan kishining ustiga bormoqni harchand sa‘y qildi, Sulton Mas‘ud mirzo bedillig‘idin yo Boqi Chag‘oniyoniyningkim, Valining ziddi edi, sa‘yidin bu kechgan kishining ustiga bormadi. Buzulg‘an yo‘sunluq Hisor sari yondilar* (b.33b). Ushbu asl matndagi ikkita gap tarjimada bitta gapga aylantirilgan: *Sultan Mes‘ud Mirza bunu haber alinca, Husrev Şah ile Veli derhal bunların üzerine yürümenin lüzumu üzerinde İsrar ettiler. Fakat Sultan Mes‘ud Mirza’nın cesaretsizliğinden veya Veli’nin muhalifi olan Bâkî Çaganyâni’nin fikrine uymasından, bu suyu geçen adamların üzerine yürümeyerek, bozguna uğramış gibi, Hisar tarafına döndüler* (s. 33b).

*Turg‘un birikma tarjimasi bilan bog‘liq muammolar.*

a) frazemalar tarjimasi bilan bog‘liq muammolar: frazema unga yaqin ma’noli barqaror birikma orqali tarjima qilingan, ya’ni qisman ekvivalentlikdan foydalanilgan: *Bir tom uyga kirib, o‘t yoqib, bir zamon ko‘zim uyquga bordi* ( b.99) / *Duvarla çevrilmiş bir eve girip, ateş yakıp, bir müddet uykuya daldım* (s.125). *Ko‘zum uyquga bordi* iborasi tarjimasida *ko‘z* komponenti ifoda etilmagan, unga ekvivalent sifatida *uykuya daldım* frazemasida qo‘llangan. Bobur uyqu holatini *ko‘zga* nisbatan tasvirlaydi, tarjimada esa *uykuya dalmak* butun tanaga nisbatan olingan. Shu bilan birgalikda uch tarkibli frazema (*ko‘zum uyquga bordi*) ikki tarkibli ibora (*uykuya daldım*)ga o‘g‘irilgan.

Tarjimon asar davomida so‘zma-so‘z tarjima usulidan ko‘p foydalangan. Ba’zi hollarda esa tarjimon frazemani so‘zma-so‘z tarjima qiladi, ammo turk tili imkoniyatidan kelib chiqqan holda so‘zlarga biroz o‘zgarish kiritadi. Masalan, *cherik tortti* frazemasida “biror joyga askarlari bilan yurishga chiqmoq” ma’nosini ifodalaydi, bu birikma turkchaga *asker sevketti* (askar jo‘natdi) tarzida tarjima qilingan. Bunday birlik “Türk dili deyimler sözlüğü”da qayd etilmaganligini e’tiborga olsak, tarjima natijasida “hukmdor lashkari bilan borib hujum qilgan” emas, “lashkarini boshqa bir lashkarboshi bilan yuborgan” degan mazmun kelib chiqadi. Bu gapni *Samarkand’a kaç kez asker çekti* tarzida tarjima qilsa, mazmun aniqroq ifodalangan bo‘lar edi;

b) maqollar tarjimasida bog‘liq muammolar. *Shayboniyxon so‘zi bu ekandurkim, Xojaning ishi mendin emas edi, Qanbarbiy va Ko‘pakbiy qildilar. Bu andin yomonroq. Masal borkim: “Uzrash batar az gunoh” (b.78).* Shayboniyxonning qilmishlariga baho berish uchun qo‘llangan *uzrash batar az gunoh – “uzri gunohidan yomonroq”* matali ham turk tiliga biroz o‘zgarish bilan tarjima qilingan. *Şıbanı Han, Hoca'nın öldürülmesi işinin kendisinden olmadığını ve katillerin Kanber Bi ile Köpek Bi olduğunu söylemiş. Bu ise daha kötüdür. Bir atalar sözü vardır: özrü kabahatinden büyük (s.85).* Bu matn tarjimasida bir necha farq mavjud. Birinchidan, Xojaning ishi – *Hoca'nın öldürülmesi işi* (Xojaning o‘ldirilganligi) tarzida o‘zgartirilgan, ikkinchidan, o‘zbekcha matnda bo‘lmagan *katillerin – qotillarning* so‘zi qo‘shilgan. Albatta, bu qo‘shimcha kiritishlar matnni to‘g‘ri, aniqroq tushuntirish uchun xizmat qilgan, ammo matal bilan bog‘liq uchinchi farq haqida bunday deb bo‘lmaydi. Matal tarkibidagi, ya‘ni asl matndagi *batar* (yomonroq) so‘zi *büyük* (katta, yirik) so‘ziga o‘zgargan. Turkcha matn tarjimasida quyidagicha: *Shayboniyxon Xojaning o‘ldirilishini o‘zidan emasligini va qotillarning Qanbarbiy va Ko‘pakbiylar ekanligini aytarmish. Bu esa yana yomonroq. Bir maqol bordir: uzri qabohatidan katta.* Bu tarjima orqali “Shayboniyxonning uzri oldida qabohati arzimasi ish” degan mazmun kelib chiqadi.

Keltirilgan nomuvofiqliklarga qaramasdan “Boburnoma”ning turkcha tarjimasida asliy matn mazmuni va uslubiyatini imkon qadar aks ettirishga harakat qilingan.

2.4-paragrafda “Boburnoma”ning qozoqcha tarjimasida bog‘liq muammolar tahlilga tortilgan. Qozoqcha tarjimadagi muammolar haqida gapirilganda “Boburnoma”ning Islom Jemeney tarjimasiga asoslanildi.

Qozoqcha tarjimadagi muammolar quyidagicha tasniflandi:

*So‘z tarjimasida bog‘liq muammolar.* Bu turdagi qusur qozoqcha tarjimada ko‘p miqdorni tashkil qiladi. So‘zlar tarjimasida bog‘liq xatolarni quyidagi misollar orqali ko‘rsatish mumkin.

“Boburnoma”dagi *Ravon savodi bor edi (b. 7b) – Анық сауатты болған* gapidagi *ravon* so‘zining *анық* tarzida o‘g‘irilishi oqibatida, “savodsiz emas, savodi borligiga shubha yo‘q” degan mazmun kelib chiqqan.

Ba‘zi so‘zlar hozirgi qozoq tiliga o‘g‘irilishi natijasida tarixiy kolorit buzilgan holatlarga quyidagicha misol keltirish mumkin:

*Bir yil, bir yarim yildin so‘ng haramdin chiqardilar (b. 13a)* gapidagi *haram* so‘zi *ayollar saroyi* tarzida tarjima qilingan. *Бір-бір жарым жылдан соң оны әйелдер сарайынан шығарды.* Bu yerda *haram* so‘zi *әйелдер сарайы* birikmasiga mazmunan teng kelsa-da, davr muhitini yoritadigan *haram* so‘zining o‘zini qoldirish, qavs ichida ma‘nosini izohlash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

*Birikma tarjimasida bog‘liq muammolar.* Nomlar va nom sifatidagi forsiy izofalar tarjima qilinishi natijasida atoqli otlik xususiyati yo‘qotilgan. “*Hamsatayn*” va *masnaviy kitoblarini va tarixlarni o‘qub erdi – Бестік пен мәснәуи жанрындағы кітаптарды оқыған еді; Nechukkim, “sebi Samarqand” va “anori Xo‘jand” derlar – Самарқанд алмасы, Хожәнд анары едәуір атақты.* Bizningcha, bu tarzidagi atoqli otlar tarjima qilinmasligi, shunchaki hozirgi qozoq tiliga transliteratsiyasini amalga oshirgan tazda berilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Qozoqcha tarjimada, ba'zi hollarda, so'z birikmasi teng bog'lanishli birikmaga aylantirib tarjima qilingan, buning natijasida, bir nasra-predmetni ifodalovchi qaratqich-qaralmishli birikma ikkita narsa-buyumga aylanib qolgan va mazmunga putur yetgan.

*Gap tarjimasi bilan bog'liq muammolar.* Bu muammolar gap mazmunining noto'g'ri aks ettirilishi, gap tuzilishining o'zgarishi, gapga qo'shimcha izohlar qo'shib, kengaytirilishi bilan bog'liq. Gap mazmuni noto'g'ri o'girilgan holatlarga quyidagi misollarni berish mumkin: *Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi.* – *Омар шейх мырза өмірінің соңғы кездерінде осы таудан ақ, қызыл жолақты тас тапқан.* “Boburnoma” tabdilida ushbu gap *Умаршайх мирзо салтанатининг сўнги пайтлари ушбу тогдан қизил ва оқ товланадиган тош топилди* (b.30) mazmunida o'girilgan. Anglashiladiki, toshning topilishida Umarshayx mirzoning aloqasi yo'q. Qozoqcha matnda “Umarshayx mirzo umrining oxirgi paytlarida qizil va oq toshlarni topgan” degan mazmun kelib chiqadi. Bu yerda asliyatdagi majhul nisbat fe'lining tarjimada aniq nisbatda qo'llanishi mazmunning, harakat bajaruvchisining o'zgarishiga olib kelgan.

Gap tuzilishi o'zgarigan holatlarga bir necha sodda gapning bitta qo'shma gapga aylantirilganligi yoki aksincha, asl matndagi qo'shma gapning bir necha sodda gap shaklida o'girilganligini misol qilib keltirish mumkin. Gap tuzilishining o'zgarishi parallel korpus lingvistik bazasini shakllantirishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

*Turg'un birikma tarjimasi bilan bog'liq muammolar.* Frazemalar tarjimasi bilan bog'liq muammolar. “Boburnoma”ning qozoqcha tarjimasida frazemalarni tarjima qilishda asosan, uning mazmunini berish yo'lidan borilgan, masalan: *shikast berib – жеңін (yengib), kishi saxlasa bo'lur – кісіні қамтамасыз етер еді (kishini ta'minlashga)* kabi.

*Ul fataratta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxong'a tushub edi... (b. 8b) – Аталған өліпарада Ханзада Бегім Мұхаммед Шейбани ханның қолына түсті* gapidagi *tushub edi* birligi *қолына түсті* tarzida o'girilgan. “Turmushga chiqish” ma'nosidagi ushbu so'z boshqa o'rinlarda *тұрмысқа шыққан еді* tarzida ham ifodalanganini hisobga olsak, ushbu gapda uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan. Tarjimon asliyat mazmunini aks ettirish uchun tarjimaning transformatsiya usulidan foydalangan. Asliyatdagi *tushub edi* fe'l shaklini hodisa mohiyatini ifodalash orqali *қолына түсті* tarzida aks ettirgan.

*Maqol-matallar tarjimasi bilan bog'liq muammolar.* I.Jemeney tarjimasida maqollar so'zma-so'z tarjima qilingan. Fors tilidagi maqollar ham qozoqchaga o'girilgan. Masalan, *Gah yozdah beh gah nuh* forsha maqoli *Тоғыз достан, он дос тәуір* deb tarjima qilingan.


Qozoqcha nashr asliyat matn tarjimasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, tarjima matnni so'z va tushunchalar izohi bilan boyitish, jumlar mosligini takomillashtirishni taqozo qiladi.

III bobda **“Boburnoma” matni o'zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik ma'lumotlar bazasining leksikografik manbalari va tarjima asoslari**” o'rganilgan bo'lib, uch paragrafni o'z ichiga oladi.

3.1-paragraf *“Boburnoma” lug'atlarining leksikografik talqini* shaklida nomlangan. So'nggi paytlarda leksikografiya tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va eng tez o'zgaruvchan sohasi ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

Bobur asarlarining o‘zbek tilidagi ilk izohli lug‘ati “Boburnoma” nashrlari so‘ngidagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. P.Shamsiyev, S.Mirzayevlar tomonidan amalga oshirilgan birinchi nashr oxirida ism va geografik joy ko‘rsatkichlari ilova qilingan. 1960-yildagi nashrda kishi nomlari ko‘rsatkichlari miqdori 1562 ta, geografik nom ko‘rsatkichlari 1026 tani tashkil etadi. 2002-yilda S.Hasanov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tanqidiy matnda ko‘rsatkichlar qamrovi yanada kengaygan. Kitobda ko‘rsatkichlar 44 sahifada izohlangan. Ular P.Shamsiyev nashridan mavzu ko‘lami jihatidan ancha farq qiladi. “Kishi nomlari ko‘rsatkichi” (1618 ta) va “Joy nomlari ko‘rsatkichlari” (1241 ta)dan tashqari “Urug‘-qabila va nasl-nasab nomlari” ko‘rsatkichi (290 ta), “Hayvonlar va o‘simliklar nomlari ko‘rsatkichi” (362 ta), “Masal va hikmatli so‘zlar” (18 ta), “Kitob va risolalalar nomlari” (40 ta), “She’rlar ko‘rsatkichlari” (94 ta) bilan boyitilgan. Ushbu nomlar orasida bir so‘z asosida yasalgan bir nechta birlikning mavjud bo‘lishi faqat urug‘-qabilani emas, shu qabiladagi shaxsning mavqeyi va nasl-nasabini ham anglatishi tufaylidir. Masalan, *turk* so‘zi etnik nom sifatida alohida ham uchraydi (31 marta), *turk umarosi* tarzida nasabni ham bildirib keladi. Yoki *mo‘g‘ul* so‘zi yakka holda asarda 69 marta qo‘llangan, shu bilan birga, *mo‘g‘ul bahodirlari*, *mo‘g‘ul beklari*, *mo‘g‘uliy*, *mo‘g‘ul ulusi*, *mo‘g‘ul cherigi*, *mo‘g‘ul mirzolari*, *mo‘g‘ul tuman beklari* tarzida birikma sifatida ham qayd etilgan. Keltirilgan tahlilda e harfi bilan boshlanadigan urug‘ va nasl-nasab nomi uchramasligi ham aniqlandi. Ushbu statistik ma’lumotlar “Boburnoma” o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratishda semantik teglash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

P.Shamsiyev, S.Hasanov hamda B.Yo‘ldoshev nashrlaridagi kishi ismlari va geografik nomlar ko‘rsatkichlari tahliliga asosan quyidagi natijalar olindi:



3.1-diagramma. Kishi ismlari va geografik nomlar ko‘rsatkichi.

B.Yo‘ldoshev nashrida ism ko‘rsatkichlari va geografik nom ko‘rsatkichlari boshqa nashrlardagiga qaraganda ancha kam, ya’ni “Kishi nomlari ko‘rsatkichi” 1208 ta va “Joy nomlari ko‘rsatkichlari” 976 tani tashkil etgan. Buning bir sababi sifatida aytish mumkinki, B.Yo‘ldoshev ba’zi so‘zlarni ism hisoblamaydi, masalan: *Tanbal mardak qocha ham olmadi* gapidagi *Tanbal* so‘zi Xusravshohga nisbatan sifatlovchi bo‘lib kelganligi, Ahmad *Tanbal* emasligini izohda beradi. Shuningdek, bir nechta ism ostida nomlanayotgan shaxslar, masalan, *Abduquddus* va *Abduquddusbek*, *Abulhasan qo‘rbegi* va *Abulhasan qo‘rchi*, *Abubakr dug‘lat* va *Abubakr mirzo* kabilar aslida bir shaxs, degan qarashni ham ilgari suradi. Bu fikrlar “Boburnoma”da nomlari zikr etilgan tarixiy shaxslar nomi yana bir karra sinchiklab o‘rganilishi kerakligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda Bobur asarlari lug‘atini yaratishdek mashaqqatli ishga hissa qo‘shganlar qatorida H.Nazarova, A.Ibrohimov, M.Olimov, F.Is‘hoqov, H.Dadaboyev,

Z.Xolmanova, Z.Teshaboyeva, M.Shorahmedova kabi olimlarning turli davrlarda nashr etilgan tadqiqotlari, lug‘atlari e’tiborga molikdir.<sup>47</sup>

“Boburnoma” matni va tarjimalarining parallel korpusini yaratishda lug‘atlarning o‘rni o‘ta muhim, chunki lug‘atlar va parallel korpuslar bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini boyituvchi vositalardir. “Boburnoma” asosida parallel korpus yaratish faqat matnni tarjima qilish bilan cheklanmay, til taraqqiyotini tahlil qilish, tarixiy leksikani jonlantirish, madaniy tafakkur matnini anglash va hozirgi tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida tadqiqot olib borish uchun muhim platformaning shakllanishiga xizmat qiladi.

3.2-paragrafda “*Boburnoma*” turkcha va qozoqcha nashrlaridagi so‘zliklarning lingvistik tavsifi amalga oshirilgan. Turk tilida “Boburnoma” uchun maxsus lug‘at yaratilmagan, ammo R.R.Arat tarjimasida so‘ngida 131 betli kattagina indeks-lug‘at ilova qilingan. Ushbu lug‘at shaxs ismlari, geografik nomlar, mashhur tarixiy voqealar, qavm va urug‘ nomlaridan tashkil topgan. Mavzu qamrovi jihatidan boshqa nashrlardagi ko‘rsatkichlarga o‘xshasa-da, ulardan har bir so‘zga berilgan batafsil izohi bilan farq qiladi. Masalan, atoqli nomlar *Sultan Murad Mirza – Muhammed Kasim Mirza ile Rabia Sultan Begim’in o‘g‘lu; A‘ga begim (Sultan Huseyin Mirza ile Payende Sultan Begim’in kızı) in kocasi* tarzida ifodalanadi. Ushbu indeks-lug‘at 2554 ta so‘zdan tashkil topgan. Har bir so‘zning asarda necha marta, ushbu tarjimada qaysi sahifalarda kelganligi ham ko‘rsatilgan.

“Boburnoma” yuzasidan qozoq tilida ham maxsus lug‘at yaratilmagan, ammo I.Jemeney ana shunday lug‘at yaratish ustida ish olib bormoqda. I.Jemeney tarjimasida satr osti izohlar berilmagan, bundan kelib chiqadiki, nashrlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilmagan. Kitob oxirida “Есімдер” (Ismlar) va “Жер-су аттары” (Geografik nomlar) berilgan. Bu ko‘rsatkich qozoqcha tarjima asosida berilgani uchun tabiiy ravishda o‘zbek tilidagi miqdordan ancha farq qiladi.

B. Qojabekuli tarjimasida oxirida tushunarsiz so‘z va iboralar izohlangan. Ularning umumiy soni 214 tani tashkil etadi. Izohlarni tizimlashtirishda avval matn ichiga kerakli so‘zga qavs ichida raqam qo‘yilgan, masalan, [14] shaklida, keyin kitob oxirida ayni raqam ostida kerakli so‘z izohlangan. So‘zlarning qamrov doirasi chegaralanmagan, har qanday mavzudagi so‘z olingan. Masalan, shaxs nomlari (*Ахмет хан, Бабыр Мирза, Бекзат* kabi), daryo nomlari (*Андукан, Исфара, Кухақ*), mansab nomlari (*бақсы, доруға, кисра*), fitonim va zoonimlar (*амридфал, гал-гал лиму, гуллар*), mavhum otlar (*гази, дастур*), narsa-buyum nomlari (*гижжақ, зуннар, чанг*) kabi.

“Boburnoma” tili barcha turkiy tillar uchun mumtoz til bo‘lib qolgan hamda uning mazmunini to‘liq anglash uchun maxsus lug‘atlarga ehtiyoj katta. O‘zbek olimlari mana shu ehtiyojni o‘z vaqtida anglaganliklari tufayli bu tillarda adib asarlari uchun bir qancha lug‘atlar mavjud. Turk va qozoq tillarida ham mana shunday lug‘atlar tuzilsagina, tarjimalardagi semantik ekvivalentlik bilan bog‘liq kamchiliklarga barham beriladi. Bunday lug‘atning yaratilishi “Boburnoma”dagi leksik birliklar mazmuni, ularning ma’no ko‘lami va turkiy tillarda qanday ifodalanishini aniqlash, eski o‘zbek adabiy tili

<sup>47</sup> Назарова Х. Захириддин Муҳаммад Бобур асарлари учун қисқача луғат. –Тошкент, 1972. – 192б.; Иброҳимов А. “Бобурнома”да ҳиндча сўзлар. –Тошкент, 2002.; Иброҳимов А. Urducha-o‘zbekcha mushtarak so‘zlar lug‘ati. – Toshkent, 2022; Олимов М. “Бобурнома”да қўлланган синонимлар луғати. – Тошкент, 2004.; Teshaboyeva Z. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklar va paremiyalarning inglizcha tarjimalari lug‘ati. – Toshkent, 2016.; Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent, 2024. – 237 b.

va hozirgi turkiy tillar leksikasi orasidagi tadrijiylikni, lug‘aviy birliklar semantik taraqqiyotini kuzatish, turkiy xalqlarning mushtarak madaniy konseptosferasini tiklash, “Boburnoma”ni turk va qozoq tillariga asliyatga yaqin va to‘g‘ri tarjima qilish imkonini beradi.

3.3-paragrafda *“Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha tarjima lug‘atining parallel korpus lingvistik ma’lumotlar bazasini takomillashtirishdagi ahamiyati* haqida so‘z yuritiladi.

O‘zbek lug‘atshunosligida bir tilga oid lug‘aviy birliklarni boshqa tilga o‘girib, izohlab beruvchi lug‘atlar keng tarqalgan. Ular tarjima qilinayotgan tillarning miqdoriga ko‘ra *ikki tilli* va *ko‘p tilli* lug‘atlarga ajratiladi. Tarjima lug‘atlari qanday lug‘aviy birlikni qamrab olishiga binoan ham guruhlanadi: a) leksik birliklar tarjima lug‘ati; b) frazemalar tarjima lug‘ati; c) paremlar tarjima lug‘ati (maqol, aforizmlar tarjima lug‘ati) kabi.

“Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha tarjima lug‘atini yaratish jarayonida quyidagi tamoyillar<sup>48</sup> asosida ish olib boriladi:

1) ekvivalentlik tamoyili; 2) semantik aniqlik va kontekstual tafovut tamoyili; 3) tizimlilik va izchillik tamoyili; 4) korpusga asoslangan empirik tahlil tamoyili; 5) texnologik integratsiya tamoyili.

Lug‘at tuzishning dastlabki bosqichida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida (ya’ni konseptual bosqichda) lug‘atning umumiy konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Bunda lug‘atning turi va maqsadini aniqlash, leksikografik materiallarni tavsiflash tamoyillari, dizayn vazifalari, makro va mikrostrukturasi, materiallar (asosiy manbalar, bosma leksikografik asarlar, nomenklatura kodlari, mualliflik ishlanmalari) tanlash ishlari amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning IV bobi **“Boburnoma” matni o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik ma’lumotlar bazasining kompyuter-texnologik asoslari** deb nomlangan va u uch paragrafdan iborat.

4.1-paragrafda *“Boburnoma” matni o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining tarjimaga asoslangan ekstralingvistik va intralingvistik ma’lumotlar bazasi* masalalari yoritilgan.

“Boburnoma” o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining lingvistik ma’lumotlar bazasini yaratishda asosiy uch qatlam – asl matn, turkcha va qozoqcha tarjimalar tanlab olindi. Bu tarjimalar “Boburnoma”ning asl matniga imkon qadar yaqin bo‘lgan, lekin hozirgi o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun til jihatdan soddalashtirilgan variantlar bo‘lishi lozimligi nazarda tutildi. Tarjimada uslub mosligi, leksik moslik, semantik aniqlik va sintaktik tuzilmaning muvofiqligi asosiy mezon sifatida qabul qilinadi.

“Boburnoma” o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi lingvistik ma’lumotlar bazasining tuzilishi va tarkibi quyidagi komponentlardan iborat: 1) manba va tarjima matnlar; 2) segmentlar; 3) metama’lumotlar; 4) struktura va format.

Parallel korpus ma’lumotlar bazasining texnologik tuzilishi quyidagilar asosida shakllantirildi: 1) segmentlash – “Boburnoma” matni va tarjimalari gap shaklidagi segmentlarga ajratildi; 2) moslashtirish (alignment) – asliyat matnidagi har bir segment

---

<sup>48</sup> Ushbu tamoyillar tarjimashunoslik va lug‘atshunoslikka oid mavjud tamoyillar asosida ishlab chiqildi.

turk va qozoq tillaridagi mos segmentlar bilan bog'landi; 3) annotatsiyalash – har bir segmentga lingvistik teglar (morfologik, sintaktik, semantik) birlashtirildi; 4) indeksatsiyalash – matnlar bazasida tezkor qidiruv imkonini beruvchi tizim yaratildi.

“Boburnoma” matni asosida tuzilgan parallel korpus tarjimonlar uchun o‘ziga xos tarjima laboratoriyasi bo‘lib xizmat qiladi. Gap darajasidagi moslik erkin tarjima va literal tarjima orasidagi farqlar, kompensatsiya, izohli tarjima, semantik kengayish yoki torayish kabi strategiyalarni tahlil qilishni osonlashtiradi. Parallel korpusning har bir gap materiali, leksik birliklari asosida zamonaviy izohli, mavzuiy yoki sohalar bo‘yicha tarjima lug‘atlarini yaratish mumkin. Bu jihat “Boburnoma” so‘z boyligini chuqur o‘rganishga zamin yaratadi. Gap asosida tuzilgan parallel korpus sun‘iy intellekt tizimlari uchun o‘quv materiali (training data) sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, neyron tarmoqlar asosidagi tarjima tizimlari uchun bu turdagi korpuslar juda zarurdir.

4.2-paragraf *Parallel korpusning matn fragmentlari tarjimasiga asoslangan lingvistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish* deb nomlangan. “Boburnoma” matni o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusining ma’lumotlar bazasini shakllantirish – bu asos matn va turk va qozoq tillaridagi tarjimalarni tartibga solish va tizimli ravishda saqlashni anglatadi. Bu jarayon, asosan, quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirildi: ma’lumotlarni yig‘ish, ma’lumotlar bazasi tuzish, ma’lumotlarni formatlash va korpusni foydalanishga tayyorlash.

“Boburnoma” o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi ma’lumotlar bazasini shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1) parallel korpus materiallarini tartiblash: “Boburnoma”ning o‘zbekcha, turkcha va qozoqcha eng muqobil variantlari tartiblandi; 2) parallel korpus materiallarini analiz qilish: to‘plangan materiallar tahlil qilindi, umumiy va farqli jihatlari aniqlandi; 3) ma’lumotlar bazasini yaratish: tahlil natijalariga asosan turkcha va qozoqcha tarjimaning xususiyatlari gap shaklidagi segmentlarga ajratildi; 4) korpusni ishlatish va tahlil qilish: yaratilgan ma’lumotlar bazasi sinovdan o‘tkazildi, mavjud kamchiliklar tahlillar asosida bartaraf etildi; 5) ma’lumotlar bazasini integratsiyalash: tayyor bo‘lgan ta’minot platforma, dastur, yoki internet saytlariga yuklandi.

Korpus tuzilishi uchun eng asosiy bosqich bu matnni tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonda “Boburnoma” va uning turkcha va qozoqcha tarjimalari, bir tildagi bir nechta tarjimadan eng muqobil variant tanlab olindi. Tanlangan matnlar, dastavval, “Boburnoma”ning asl matniga lingvistik va texnik ishlov berildi. Birinchi galda matn Word formatiga o‘girilib, imloviy xatolar tuzatildi. So‘ng segmentlarga ajratish jarayoni olib borildi. Parallel korpus uchun eng maqbul segmentlash bu gap miqyosida segmentlash bo‘lgani uchun asar matni gaplar shaklidagi shartlangan tokenlarga ajratildi. Matn 10940 ta sodda va qo‘shma gapga (138745 ta so‘z) ajratilib, turkcha va qozoqcha tarjimasini parallel ravishda integratsiyalandi. Jadvalda aslyat matni hamda turk va qozoq tillaridagi tarjimalarga oid maxsus qoida hamda istisnolar ajratib ko‘rsatilgan, so‘zma-so‘z mos kelmagan birliklar belgilangan. Tarjima jarayonida sodda gap qo‘shma gap bilan (yoki aksincha) ifodalanishi, ma’lum bir xatboshilar tushib qolishi yoki qo‘shilishi, tarjimada sleng ishlatilishi oqibatida gap chegaralarining teng kelmay qolishi holatlari kuzatildi. Matn parallel ravishda avtomatik teglangandan so‘ng, nomuvofiqliklar qo‘lda to‘g‘rilab chiqishildi. Bu amaliyot, keyinchalik, parallel korpus

uchun lingvistik bazani shakllantirishda manba bo‘ladigan lug‘atlarni yaratishda asos vazifasini o‘taydi.

Tarjima jarayonida har bir gap boshqa tilga aynan shu gap shaklida o‘girilmasligi mumkin. Ba‘zan asl matndagi gap tarjimada bir nechta gap bo‘lishi yoki bir nechta soddaga gap bitta gap tarzida tarjima qilinishi mumkin. Bunday holda tarjima matnlar asliyat matniga mos tarzda frazalarga ajratildi. Masalan, o‘zbekcha matndagi *Muxtasar viloyattur, oshlig‘ va mevasi farovon* gapni turkchaga ikkita gap tarzida o‘girilgan: *Küçük bir vilâyettir. Hububat ve meyvası boldur.* Ushbu jumla Tarjima matndagi ikkita gapni asliyatga mos ravishda bitta gap shaklida muvofiqlashtirildi.

Turkcha tarjimada ayrim gaplar tarjima qilinmagan. Masalan, 228- segment sifatida ajratilgan *Yunusxon o‘g‘lonlari Ofoqxon va Jonbobxon edi* gapni turkcha va qozoqcha tarjimada ifodalanmagan. Bunday holda tarjima yo‘q degan (–) belgi qo‘yildi va muqobil tarjima taqdim etildi.

Qozoqcha tarjima bilan bog‘liq moslash jarayonida ham yuqoridagi holatlar kuzatildi. Shu bilan birgalikda qayta bo‘lishning iloji bo‘lmagan gaplar ham uchradi. Masalan, yuqoridagi *Yana bir Kosondur, Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur* gapni *Тағы бірі – Касан. Әхсидің солтүстігіндегі кичірек қала* tarzida tarjima qilingan. Bu gapning birinchi qismi o‘zbekcha matndagi mazmunni to‘liq ifodalay olmaydi, qayta bo‘lishning ham imkoni yo‘q. Bunday hollarda ikkala gap 122-gapga muqobil qilib berildi. 123-gap ifodalanmagan (–) tarzida belgilanib, tarjimasi keltirildi.

4.3-paragrafda *Parallel korpus lingvistik ta‘minotini annotatsiyalash va teglash tizimi* haqida so‘z yuritildi. Parallel korpus lingvistik ma‘lumotlar bazasini talab darajasida shakllantirish uchun matnlarning nafaqat tarjimasi keltirildi, balki ularning leksik, grammatik, sintaktik, stilistik xususiyatlari annotatsiyalandi. Shuningdek, tarjimaning kim tomonidan, qachon, qanday kontekstda amalga oshirilganini ifodalovchi metadata ham kiritildi.

Annotatsiya, ayniqsa, eski o‘zbek adabiy tilidagi shakllar va ularning zamonaviy muqobillarini tahlil qilishda katta yordam beradi. Teglash tizimi – parallel korpusning strukturaviy asosi. U lingvistik ma‘lumotni qatlamli shaklda (sintaktik, morfologik, semantik) saqlash, avtomatik tarjima va lingvistik tahlil uchun mustahkam zamin yaratadi. Korpus sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri – izchil, standartga asoslangan va tilga mos teglash tizimidir.

Parallel korpus uchun eng muhim teglash gap shaklda tenglashtirishdir. Gaplar parallel korpuslarning o‘ta muhim tenglashtirish shakli hisoblanadi. Asliyat va tarjima matnlarini parallel korpusda bir-biriga moslashtirish uchun align (moslashtirish) usuli qo‘llandi. Bu jarayon, asl matnning har bir qismini (so‘z yoki jumlaning) tarjimadagi mos keluvchi qismga bog‘lashni o‘z ichiga oladi.

Parallel korpusda asl matn va tarjima jumllarini to‘g‘ri moslashtirish talab etiladi. Parallel korpusda Tarjima va asl nusxa o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatish uchun quyidagi teglash turlari ishlatildi: morfologik (PoS – Part-of-Speech) teglash; sintaktik teglash; semantik teglash.

Mavjud parallel korpuslarning ko‘pi ikki (asliyat va tarjima) tildagi matnni faqat gap ko‘rinishida parallel ko‘rsatadi. Ammo nazariy jihatdan parallel korpuslarda birikma va so‘zlarni parallel ko‘rsatish imkoni ham mavjud. Tarjimada transformatsiyaga

uchragan erkin birikma yoki yasama soʻzni asliyat va tarjimada parallellash mumkin. Bu vazifa quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) tarjima va asliyat matnlari qiyoslanib, transformatsiyaga uchragan birlik / hodisalar roʻyxati tuzildi; 2) transformatsiyaga uchragan birliklarning oʻzbekcha varianti keltirildi; 3) birliklar oʻzaro parallellashtirildi, teglandi; 4) birliklarning maʼlumotlar bazasi – lugʻati shakllantirildi”<sup>49</sup>.

Morfologik va sintaktik tahlil uchun moʻljallangan turli dasturiy vositalar mavjud. Ular odatda teggerlar (taggers) va parserlar (parsers) deb yuritiladi.

“Boburnoma” oʻzbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini teglashning dastlabki bosqichida maʼlumotlar gap darajasida teglandi, keyingi bosqichlarda sintaktik va morfologik teglanishi mumkin.

Avtomatik tarjima hali mukammal emas – u, koʻp hollarda, xatolarga yoʻl qoʻyadi yoki bir necha tahlil variantini taklif qiladi. Bir soʻz, soʻz birikmasi yoki gap uchun bir nechta grammatik yechim boʻlishi holatidagi semantik munosabat grammatik omonimiya deb ataladi. Noaniqlikni bartaraf etish (yaʼni morfologik va sintaktik noaniqliklarni yechish) tarjimashunoslik oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir.

## XULOSA

1. Matn asosidagi parallel korpuslar tarjimashunoslik, chogʻishtirma hamda qiyosiy tilshunoslik uchun keng ilmiy imkoniyatlar yaratadi. “Boburnoma” matnining oʻzbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusi mazkur tillardagi umumtaraqqiyot belgilarini va keyingi davrlardagi rivojlanish xususiyatlarini, madaniyatlararo farqlarning ekstralingvistik va lingvistik omillarini aniqlash, tarixiy-badiiy matn mazmunini toʻgʻri aks ettirish darajasini yoritishda ahamiyatlidir. Parallel korpusning lingvistik maʼlumotlar bazasi lugʻaviy birliklarning qardosh tillarda ishlatilishini aniq matnda kuzatish, til tuzilishi va semantikasining tarjimada qanday oʻzgarish holatini aniqlash, shuningdek, tarjima strategiyalarining amalga amalga oshirilish tarzini tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi.

2. “Boburnoma”ning oʻzbek tilidagi nashrlari asarni ommalashtirish, asar matni bilan bogʻliq muammolarni aniqlash, eski oʻzbek adabiy tilining leksik-semantik imkoniyatlarini, shuning barobarida, muallifning tildan foydalanish va lingvistik tasvir yaratish mahoratini ochib berishga muhim ulush qoʻshadi. Parallel korpus lingvistik maʼlumotlar bazasini shakllantirish jarayonida mavjud nashrlarda grafik, orfografik, semantik, mantiqiy tafovutlar borligi kuzatildi. Bu holat asarning qoʻlyozmalar va nashrlarga asoslangan mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratish lozimligini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qoʻyadi. “Boburnoma” matni yuzasidan tilshunoslikning semantika va matnshunoslik yoʻnalishida tadqiqotlar olib borilishi lozimligini koʻrsatadi. Lingvistik maʼlumotlar bazasini shakllantirishda oʻzbekcha nashrlardagi munozarali birliklarning boshqa nashrlarda ham qayd etilgan muqobil variantlari tanlandi.

3. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasini qarindosh tillar matniga asoslanilgani sababli semantik aniqlik va uslubni saqlab qolish jihatidan nisbatan muvaffaqiyatli

---

<sup>49</sup> Каримов Р. Ўзбек-инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 19.

amalga oshirilgan. Ayniqsa, tarjima oxiriga ilova qilingan indeks-lug‘at boburshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ilmiy manba sifatida qadrlanadi. Tarjima jarayonida ayrim matn qismlarining tushirib qoldirilishi, ba’zi so‘zlarning noto‘g‘ri yozilishi mavjud tarjima matnining qimmatli jihatlarini saqlagan holda, hozirgi lingvistik mezonlar asosida qayta ishlanishi va mukammal nusxada taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Lingvistik ma’lumotlar bazasini shakllantirishda turkcha tarjimaga oid qayd etilgan nomuvofiqliklar bartaraf etildi.

